

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT  
JAHON TILLARI  
UNIVERSITETI

100173, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A manzlesi.  
21-uy, Tel: (71) 230-12-91, e-mail: uzdju\_d@edu.uz,  
uzgumya@exat.uz, uzgumya1@exat.uz



MINISTRY OF HIGHER  
EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF  
THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN

UZBEKISTAN STATE  
UNIVERSITY OF WORLD  
LANGUAGES

100173, Tashkent, Kichik halqa yo'li str.,  
G-9A-21, Ph: (71) 230-12-91, e-mail: uzdju\_d@edu.uz,  
uzgumya@exat.uz, uzgumya1@exat.uz

20 23 il "30 08"

No 262

## BUYRUQ

Universitetda tahsil olayotgan  
turar joyga muhtoj talabalarini  
talabalar turar joyi bilan  
ta'minlash to'g'risida

Universitet tahsil olayotgan turar joyga muhtoj talabalarini talabalar turar joyi bilan ta'minlashni yuqori saviyada va adolatli tashkil etish hamda bu boradagi mavjud tartiblarni yanada kuchaytirish maqsadida

### BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar va fakultet dekanlariga:

1.1. Joriy yilning 25-avgust kunidan boshlab barcha fakultetlarda Yoshlar masalalari va ma'naviy-marifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektor (H.Hakimov) raisligida 1-ilovaga muvofiq talabalar turar joyi taqsimotini ta'minlovchi maxsus komissiya faoliyati yo'lga qo'yilsin.

1.2. Komissiya tarkibiga talabalarini turar joy bilan ta'minlash ishlari muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i, fakultet dekani, fakultet dekanining yoshlar bilan ishslash va ma'naviy-marifiy ishlari bo'yicha muovini, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti universitet yoshlar yetakchisi, tegishli talabalar turar joyi mudiri va Talabalar turar joyi Pedagog-tarbiyachilari kiritilsin.

1.3. Talabalardan talabalar turar joyidan o'rinn olish bo'yicha universitet rektori nomiga ariza 2-ilovadagi namuna asosida qabul qilinsin.

2. Barcha fakultet dekanlariga:

2.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 14-iyuldagagi 01/15-1429-sonli xati asosida ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 1-noyabrdagi 1019-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida talabalar turar joyiga joylashtirish uchun 15-iyuldan 30-iyul kuniga qadar, 30-iyul kuni ham onlayn qabul

qilingan arizalarni ko'rib chiqish va talabalar turar joyiga joylashtish mezonlariga asosan adolatli va shaffof ko'rib chiqish agar talabalarni turar joyga joylashish bo'yicha taqdim etgan hujjatlari loyiq topilsa darhol joylashtirish choralarini ko'rilsin;

2.2. Fakultetlarda tashkil etilgan komissiya orqali talabalardan turar joyga joylashish bo'yicha arizalar o'quv yili davomida qabul qilinsin.

2.3. Talabalar turar joyidan o'rin avvalo, chin yetim, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va nogiron, boquvchisini yo'qotgan (otasi olamdan o'tgan yoki otasi qaramog'idan mahrum bo'lgan) talabalar, "Temir daftari"da turuvchi oila farzandi, oilada ikki yoki undan ortiq farzandi to'lov-shartnomaga asosida o'quvchi talaba mavjud bo'lsa (bunda ma'lumotnomaning asl nusxasi taqdim etiladi) hamda "Ayollar daftari"ga kiritilgan talabalarga ajratilsin. Bunda talabalarning yuqorida qayd etilgan barcha sabablar guvohnoma va tuman hokimiyati yoki sektor rahbarining xati hamda ma'lumotnomasi asos bo'lib xizmat qiladi.

2.4. 2023-2024-o'quv yilida talabalikka tavsiya etilgan 1-bosqich talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish uchun Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini my.gov.uz orqali elektron arizalar qabul qilinayotgani inobatga olinsin;

2.5. Ruxsatnomaga bilan kelgan 1-bosqich talabalarini talabalar turar joyiga darhol joylashtirish choralarini ko'rilsin;

2.6. Talabalardan tushgan har bir ariza sinchiklab o'rganib chiqilsin, hujjatlarning soxtalashtirilishiga yo'l qo'yilmasin, zarur hollarda joylardagi hokimlikdan taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligini aniqlashtirish bo'yicha so'rovnomalar yuborilsin.

2.7. Avvalgi yillarda talabalar turar joyida istiqomat qilgan talabalarning arizalari tegishli talabalar turar joyi mudiri va pedagog-tarbiyachining tavsiyanomasi ijobjiy bo'lgan taqdirda ko'rib chiqilsin.

2.8. Talabalar turar joyi bilan ta'minlashning iloji bo'lmagan talabalarga komissiya izohi va tushuntirishlari ariza ko'rib chiqilayotgan paytning o'zida yetkazilsin.

2.9. Turar joyidan o'rin olishga tavsiya etilgan talabalarning hujjatlari umumlashtirilgan holda universitet maxsus komissiyasi (H.Hakimov)ga taqdim etilsin.

2.10. Maxsus komissiyaga taqdim etilgan hujjatlarning adolatli tarzda ko'rib chiqilganligi bo'yicha fakultet dekani shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo'yilsin.

3. Talabalar turar joyi taqsimotini ta'minlovchi maxsus komissiya (H.Hakimov)ga:

3.1. Maxsus komissiyaning yig'ilishi 10-avgust kuni o'tkazilsin va fakultet komissiyasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar adolatli tarzda o'rganilsin hamda haqiqatda turar joyga muhtoj talabalar turar joy bilan ta'minlansin.

3.2. Talabalarning turar joyga joylashishini ta'minlash 15-25 avgust kunlari davomida amalga oshirilsin va talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalariga to'la amal qilish majburiyati bilan tanishtirilsin.

4. Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (S.Abdullayev) va Bosh hisobchi (G'.Sharipov)larga:

4.1. Talabalarning turar joyga to'lovnini tez va sifatli amalgaga oshirishlari bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilsin.

4.2. To'lovnini amalgaga oshirish jarayonida maxsus komissiya tomonidan taqdim etilgan ruxsatnomaga qat'iy amal qilinsin, komissiya a'zolari to'liq imzolamagan ruxsatnoma egasining to'lovnini amalgaga oshirishiga ruxsat berilmasisin.

5. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i (M.Fozilov), Talabalar turar joylari mudirlari va pedagog-tarbiyachilariga:

5.1. Talabalar komissiya xulosasiga asoslangan ruxsatnoma va turar joy uchun to'langan mablag' ma'lumotnomasi asosida Talabalar turar joyiga joylashtirilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Rektor v.y.b**

**B.Kulmatov**



**ASLIGA TO'G'RI**

O‘zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti rektorining  
2023-yil “\_\_\_” \_\_\_-son buyrug‘iga  
1-ilova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti \_\_\_\_\_ fakulteti

**RUXSATNOMA №\_\_\_\_\_**

Talaba \_\_\_\_\_ ga \_\_\_ -son talabalar turar joyida

2022/2023 o‘quv yilida yashash uchun ruxsat berildi.

**Komissiya raisi:**

Yoshlar masalalari va manaviy-marifiy ishlari bo‘yicha birinchi prorektor

\_\_\_\_\_ imzo

**Rais o‘rinbosari:**

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ imzo

**Komissiya a’zolari:**

1. Talabalarni turar joy bilan ta’minlash ishlari muvofiqlashtiruvchi bo‘lim boshlig‘i

\_\_\_\_\_ imzo

2. Yoshlar bilan ishslash, manaviyat va marifat ishlari bo‘yicha dekan muovini

\_\_\_\_\_ imzo

3. Universitet Yoshlar ittifoqi universitet yetakchisi

\_\_\_\_\_ imzo

4. Talabalar turar joyi mudiri

\_\_\_\_\_ imzo

5. TTJ Pedagog-tarbiyachisi

\_\_\_\_\_ imzo

muhr

sana

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
rektorining 2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_  
\_\_\_-son buyrug'iiga 2-ilova

**Talabalar turar joyidan o'rinn olish bo'yicha ariza  
NAMUNASI**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
rektori v.v.b  
B.Kulmatovga

\_\_\_\_\_ fakulteti \_\_\_\_ -kurs  
talabasi \_\_\_\_\_ dan

**A R I Z A**

Men \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.) hozirgi kunda O'zbekiston davlat jahon tillari  
universitetining \_\_\_\_\_ fakulteti bakalavriat ta'lif  
*yo'naliishi* \_\_\_\_\_ -kursi \_\_\_\_\_ guruhida budjet, shartnoma asosida tahlil olaman.  
2022/2023-o'quv yilida an'anaviy dars-mashg'ulotlariga qatnashish uchun men  
viloyatidan kelganligim, Toshkent shahrida turar joyim yo'qligi (*quyidagi  
asoslar mavjud bo'lsa tagiga chizish shart:mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, chin yetim,  
guruh nogironligim, "Temir daftari", "Ayollar daftari" ro'yhatiga kiritilgan oila farzandi, Yoshlar  
daftarida turuvchi talaba ekanligim) sababli, universitetga qarashli \_\_\_\_\_ -sonli talabalar turar  
joyidan yashash uchun joy berishingizni va u yerga ro'yhatga olishingizni so'rayman.*

Talabalar turar joyiga joylashar ekanman, "Oliy ta'lif muassasasining odob-axloq  
qoidalari"ga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2006-yil  
17-yanvardagi "Talaba (o'quvchi)lar turar joyi faoliyatiga oid yangi tahrirdagi me'yoriy hujjatlarni  
tasdiqlash to'g'risida"gi 11-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan universitetning "Talabalar turar  
joylari to'g'risida"gi Nizomga to'la amal qilish majburiyatini o'z zimmamga olaman. Talabalar  
turar joyi uchun belgilangan to'lovni belgilangan vaqtadan kechiktirmagan holatda to'lashga va'da  
beraman. Belgilangan tartib-qoidalarni buzsam, talabalar turar joyidan chetlashtirilishimga  
roziman.

Universitet talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalari bilan tanishdim.

imzo

**Eslatma:**

1. Agar talaba chin yetim yoki mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi bo'lsa, guvohnomalarning nusxasi;
2. Agar talabada nogironlik to'g'risida ma'lumotnomalar bo'lsa, ma'lumotnomadan nusxa;
3. Agar talaba kam ta'minlangan oila farzandi bo'lsa jumladan, "temir" daftari, "ayollar" daftari, "yoshlar" daftariga kiruvchi oila farzandi yoxud oilasida ikki yoki undan ortiq to'lov shartnoma asosida o'qiydigan talabalar bo'lsa yashash hududi bo'yicha sektor rahbari yoki mahalliy hokimiyatdan ma'lumotnomalar etiladi.

sana

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
rektorining 2023-yil "\_\_\_" —  
— -son buyrug'iiga 2-ilova

Talabalar turar joyidan o'rinn olish bo'yicha ariza  
NAMUNASI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
rektori v.v.b  
B.Kulmatovga

fakulteti \_\_\_ -kurs  
talabasi \_\_\_\_\_ dan

A R I Z A

Men \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_ hozirgi kunda O'zbekiston davlat jahon tillari  
universitetining \_\_\_\_\_ fakulteti bakalavriat ta'lif  
yo'naliishi \_\_\_\_\_ -kursi \_\_\_\_\_ guruhiда budget, shartnoma asosida tahsil olaman.  
2022/2023-o'quv yilida an'anaviy dars-mashg'ulotlariga qatnashish uchun men  
\_\_\_\_\_ viloyatidan kelganligim, Toshkent shahrida turar joyim yo'qligi (quyidagi  
asoslar mayjud bo'lsa tagiga chizish shart:mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, chin yetim,  
guruh nogironligim, "Temir daftari", "Ayollar daftari" ro'yhatiga kiritilgan oila farzandi, Yoshlar  
daftarida turuvchi talaba ekanligim) sababli, universitetga qarashli \_\_\_ -sonli talabalar turar  
joyidan yashash uchun joy berishingizni va u yerga ro'yhatga olishingizni so'rayman.

Talabalar turar joyiga joylashar ekanman, "Oliy ta'lif muassasasining odob-axloq  
qoidalari"ga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2006-yil  
17-yanvardagi "Talaba (o'quvchi)lar turar joyi faoliyatiga oid yangi tahrirdagi me'yoriy hujjatlarni  
tasdiqlash to'g'risida"gi 11-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan universitetning "Talabalar turar  
joylari to'g'risida"gi Nizomga to'la amal qilish majburiyatini o'z zimmamga olaman. Talabalar  
turar joyi uchun belgilangan to'lovni belgilangan vaqtidan kechiktirmagan holatda to'lashga va'da  
beraman. Belgilangan tartib-qoidalarni buzsam, talabalar turar joyidan chetlashtirilishimga  
roziman.

Universitet talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalari bilan tanishdim.

imzo

sana

Eslatma:

1. Agar talaba chin yetim yoki məhribonlik uyi tarbiyalanuvchisi bo'lsa, guvohnomalarning nusxasi;
2. Agar talabada nogironlik to'g'risida ma'lumotnomaga bo'lsa, ma'lumotnomadan nusxa;
3. Agar talaba kam ta'minlangan oila farzandi bo'lsa jumladan, "temir" daftari, "ayollar" daftari, "yoshlar" daftariga kiruvechi oila farzandi yoxud oilasida ikki yoki undan ortiq to'lov shartnoma asosida o'qiydigan talabalar bo'lsa yashash hududi bo'yicha sektor rahbari yoki mahalliy hokimiyatdan ma'lumotnomaga talab etiladi.